

## O'ZBEK TILI TA'LIMIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Ismoilova Maftuna Kenjaboy qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2 kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14948706>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'zbek tili tarixiga bir nazar tashlanib, O'zbek tili ta'limi istiqbollari hamda hozirgi kundagi tilga bo'lgan munosabat haqida mulohaza yuritiladi. Til rivojiga zamonaviy yondashuvlar haqida umumiy fikrlarimiz keltiriladi.

**Kalit so'zlar:** o'zbek tili, millatchilik, bixevioristik yondashuv, interaktiv yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv.

**Abstract.** This article takes a look at the history of the Uzbek language, discusses the prospects of Uzbek language education and the current attitude towards the language. We present our general thoughts about modern approaches to language development.

**Key words:** Uzbek language, nationalism, behaviorist approach, interactive approach, competence approach.

O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, tilimiz mazkur maqomni olmasidan burungi va olganidan keyingi holati haqida fikr yuritishdan avval o'sha davrdagi vaziyatlarning qanchalik og'irligi haqida gaplashsak. O'sha sho'ro davrlarda bizning o'zbek millatimiz o'zlari istamasalarda, majburlikdan rus tilida gaplashishgan. Ayniqsa, o'zbek tili ham mustaqil til sifatida yashashga haqli deyishning o'zi o'ta millatchilik deb baholanardi. Xalqqa ilm o'rgatish maqsadida bosh ko'tarib chiqqan qanchadan qancha jadidlar halok bo'lishdi. Shukurki, qishning so'nggi bahor bo'lganidek bu kabi ayanchli ishlarning barchasi asta sekin barham topa boshladi. Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov O'zbek tiliga davlat tili maqomini berish haqidagi qonunlarini eshtgan kimsa borki beixtiyor ko'zlariga yosh keladi. Axir har qanday mamlakatni boshqalardan ajratib turadigan asosiy unsurlaridan bittasi- til emasmi? Bizning ham shu tilimiz bor ekan, o'zbek xalqi, o'zbek adabiyoti, o'zbek madaniyati, o'zbek urf-odatlar bor hisoblanadi. Demak, til masalasi shunchaki gap orasida aytib ketilaveradigan jo'n, kichik mayda masala emas, balki davlat ahamiyatiga ega, ulkan masaladir. Xullas, o'zbek tilining tarixi haqida so'z yuritir ekanmiz bunga bir ma'ruza yoki bir maqola doirasida yoritib bo'lmaydi. Shunday ekan keyingi masalalarimizdan bo'lgan o'zbek tili ta'limi istiqbollari haqida fikrimizni davom ettiramiz.

Bugungi fan va texnika rivojlanib, inson aql idroki yangi-yangi ufqlar sari parvoz qilarkan, biz milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari g'oyasini amalga oshirishda ona tilimizga yanada e'tiborli bo'lishimiz suv va havodek zarur ekanligi o'z o'zidan ayon bo'lib qolmoqda. Bugun davlat tiliga to'laqonli yondashuv mavridi keldi! Mamlakatda Ona tilimiz bilan bog'liq bo'lgan holatlar o'zgarmoqda va o'zgarishi ham shart, muhim. Bundan oldin esa o'zimiz, millatning har bir vakili o'zini, qalbini, dunyoqarashini, tuyg'ularini o'zgartirishi yangilashi kerak! Har bir o'zbekman degan inson o'z tilini har joyda bo'lmasin ulug'lab, uni oyoq osti bo'lishiga yo'l qo'ymasligi kerak. Va yaqin orada til haqida chiqayotgan qonunlar asta-sekin kuchga kira boshlasa milliy tilimizning mavqeyi yanada yuksalishi, shu boradagi sa'y-harakatlar yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qiladi.

Endi esa bosh mavzuyimiz bilan zamonaviy yondashuvlar haqida gaplashsak. Bugungi kunda ona tili ta'limida uch xil yondashuvdan foydalanilayotganini aniqladik. Bular

bixevioristik yondashuv, integrativ yondashuv hamda kompetensiyaviy yondashuvlardir. Mazkur yondashuvlar mohiyatan bir-birini to'ldirib boradi va o'qituvchi dars davomida ulardan vaziyat talab qilgan holatni inobatga olib foydalanmog'i zarur.

Bixevioristik yondashuvning kelib chiqishi aslida bixeviorizm inglizcha behaviou, ya'ni "xulq-atvor" degan ma'nolarni anglatib, XIX asr oxiri XX asr boshlarida AQSH ingliz psixologiyasida paydo bo'lgan oqimning nomi bilan bog'liq. Bizdagi ma'lumotlarga qaraganda bu yo'nalishning asoschilari Dj. Uotson, E. Tomdayklar bo'lishgan. Bixeviorizmning negizida psixologik tadqiqot predmeti sifatida psixika va ongni inkor etish yotadi. Bixevioristlarning fikricha, odam qanday psixikaga egaligidan qat'i nazar, u qo'zg'atuvchilarga javob beradigan o'ziga hos mashinadir. Ya'ni inson xulq-atvori tashqi ta'sir hamda tashqi ta'sir bilan reaksiyaga kirishuv asosida shakllanadi va rivojlanadi. Psixologiyadagi bu yo'nalish Yevropa mamlakatlarida XX asr boshlariga kelib ta'lim sohasiga ko'chdi va taxminan chorak asrdan ko'proq vaqt bixevioristik yondashuvdan to'la foydalanildi. Yevropa mamlakatlari keyinchalik bixevioristik yondashuvdan faqat boshlang'ich ta'limdagina qisman foydalanadigan bo'lishdi. Bizda esa jadidlar qatag'onidan keyin ta'lim tizimi to'liq bixevioristik yondashuvga tayanadigan bo'ldi. Bixevioristik ta'limot asosida "mashqlar qonuni" yotadi. Ona tili ta'limida uzoq vaqt hukmronlik qilgan an'anaviy ta'lim shu yondashuvga asoslanadi. Bixevioristik yondashuv inson xulq-atvorining shakllanishi hamda rivojlanishini faqat va faqat "o'rgatishga" bog'liq deb hisoblaydilar. Demak, bixevioristik yondashuv mohiyatiga ko'ra, ona tili mashg'ulotlarida o'quvchi hamisha passiv o'rganuvchiga aylanishi kerak va ta'lim oluvchilarning ijtimoiy holati, ruhiyati, iqtidori, tarbiyasi qanday ekanligidan qat'iy nazar, ularga bir xil ko'z bilan qarab bir xilda ta'lim berib o'rgatilsa, mashq qildirsa, albatta, ko'zlangan maqsadga erishiladi. O'zbek pedagogikasi 1940-yillardan boshlab toki mustaqillik davriga qadar bixevioristik yondashuvdan foydalandi, ammo hamma vaqt ham ushbu yondashuv kutilgan samarani bermasligi uzoq yillar kuzatuvlari hamda tajribalardan ayon bo'ldi. Ushbu yondashuv ko'plab zamonaviy ta'lim namoyondalari tomonidan taqlid qilindi. Shu o'rinda Demokrit ham o'z fikrini shunday deb izohlagan edi: "Bilimning ko'pligi aqlni oshirmaydi". Darhaqiqat bu yondashuvning maqsadi ya'ni natijasi jamiyatga bilimdon, ijrochi shaxsni yetkazib berish edi. Yanada tushinarliroq qilib aytganda o'qituvchi o'quvchiga o'zining bor bilimni singdirishi nazarda tutilgan. Lekin bizga bu holat kerak emas. O'quvchi o'qigan narsasini uqishi kerak aslida.

Keyingi yondashuvimiz integrativ yondashuv bo'lib turli fanlardan olingan bilimlar, ko'nikma, malaka va tajribani hisobga olish, tayanish, integratsiya qilish, ona tilidan kommunikativ, kasbiy kommunikativ, ijtimoiy kompetentlikni baravar rivojlantirishni nazarda tutadi. Yana biri bu kompetensiyaviy yondashuv hisoblanib, u ta'limda har bir ta'lim oluvchining uquvi, layoqati va qobiliyatini inobatga olish nazarda tutadi.

Xulosa qilsak biz yuqorida bir nechta mavzular doirasini ko'rib chiqdik. Shulardan keng ko'lamlisi bu zamonaviy yondashuvlar bo'ldi. Bizning fikrimizcha kommunikativ yondashuv eng samaralisi hisoblanadi. Buni amaliyotlarda ham qo'llab ko'rishimiz mumkin. To'g'ri bu kabi tahlillarni bir nechta kishilar tahlil qilgan bo'lishlari mumkin, lekin biz ham ushbu mavzuni yangicha tahlil qildik hamda mavzuga oid fikrlarimizni keltirdik.

### References:

1. Babanskiy Y.Q. "Xozirgi zamon umumiy ta'lim maktabida o'qitish metodlari".- Toshkent:

O'qituvchi, 1990.

2. Nazarov K. "O'zbek tili punktustsiyasi". - Toshkent: O'qituvchi, 1976.
3. Ne'matova G. "Ijodiy tafakkurni rivojlantirish texnologiyasi va o'quvchining mustaqil faoliyati" (Ona tili o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma). - Toshkent: RTM, 2001.
4. Roziqov O., Og'ayev S., Maxmudova M., Adizov B. "Didaktika.- Toshkent: Fan, 1997.
5. [https:// cyberleninka.ru](https://cyberleninka.ru)